

**INKLYUZIV TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Toshkent viloyati Oriental universiteti**

**Ta'lim menejmenti fakulteti**

**104 - guruuh magistranti**

**SHOMURODOVA NARGIZA**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi, va bu ta'lim tizimi ta'limda ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflays o'qish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab elektron ta'lim olish imkonini beruvchi juda ko'plab elektron ta'lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta'lim olishning eng afzal tomoni ta'lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma'ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyati cheklangan o'quvchilarni boshqa tengdoshlari bilan teng bilim olishlarini ta'minlab kelmoqda. Inkluziv ta'limni tashkil etishda ushbu texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshishiga olib kelmoqda.

Inklyuziv ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta'lim jarayonlariga qaraganda ko'proq foydalanish kerak. Negaki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab

internatlarining aksariyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Shaxsiy kompyuter (planshet yoki smartfonlar);
- Interaktiv doska;
- Multimedia vositalari;
- Internet-resurslaridan foydalanish imkoniyati<sup>1</sup>.

Bu holatda xulosa qilishimiz kerakki, inklyuziv ta'lim maxsus ta'lim va umumta'lim maktabidagi ta'lim jarayonidan ham yaxshiroq bo'lishi kerak va albatta, yuqorida aytib o'tilgan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlari inklyuziv ta'lim jarayonida bo'lishi uning samaradorligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda, ta'lim jarayonida AKT vositalarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- standart texnologiyalar — masalan, nogironlar uchun mo'ljallangan sozlamalarga ega kompyuterlar;
- muqobil ma'lumotlar formati — masalan, HTML, DAISY (Digital Accessibility Information System) audio kitoblari, shuningdek, Brayl alifbosi kabi “quyi texnologiyali” formatlar;
- yordamchi texnologiyalar — eshitish apparatlari, ekrandan o'qish moslamalari, maxsus imkoniyatlarga ega klaviaturalar va boshqalar. Umuman olganda yordamchi texnologiyalar kiradi.

Yordamchi texnologiyalar (YoT) – “nogironligi bo'lgan bolalarning funksional imkoniyatlarini kuchaytirish, qo'llab-quvvatlash yoki yaxshilashga mo'ljallangan qurilmalar, mahsulotlar, uskunalar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlar”.

Yordamchi texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turli ko'rinishdagi telefon qurilmalari va tizimlari;
- ma'lumotlarni uzatish vositalari va tizimlari;

---

<sup>1</sup> Бадарч, Дендева. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: монография / Бадарч Дендев/ Москва: ИИТО ЮНЕСКО, 2013.

- xavfsizlikni saqllovchi va ogohlantiruvchi vositalar va tizimlar<sup>2</sup>;

Sanab o'tilgan barcha yordamchi texnologiyalar nogironligi bo'lgan bolalarni ta'limdagi imkoniyatlarini oshirishga va ularni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Umumiyligi ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir..

Inklyuziv ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta'lim jarayonlariga qaraganda ko'proq foydalanish kerak.

Inklyuziv ta'lim va umuman ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini kiritish bu zamon talabiga aylanmoqda. Stiv Djobs aytganidek,

"XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun ijodkorlik va texnologiyani uyg'unlashtirish kerak"<sup>3</sup>, aynan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining uyg'unlashuvi bizni ta'limda yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.

2. Бадарч, Дендева. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: монография / Бадарч Дендев/ Москва: ИИТО ЮНЕСКО, 2013.

– 320 стр. <https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214728.pdf>

### **Internet resurslari:**

1. [https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190431\\_rus](https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190431_rus)  
<https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214675.pdf>

<sup>2</sup> [https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190431\\_rus](https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190431_rus)  
<https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214675.pdf>

<sup>3</sup> Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011